



IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI VA TOLERANTLIK MADANIYATI

Sharof Agabayev

O‘zDJTU Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Globallashuv, tolerantlik, intolerantlik, madaniyat, axborotlashgan jamiyat, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy munosabatlar, mega-jamiyat, urf-odatlar, qadriyatlar, multikulturalizm, fundamentalizm.	Mazkur maqolada globallashuvni tadqiq etishda siyosiy jarayonlar va shaxslararo ijtimoiy munosabatlarni o‘zida qamrab oluvchi tolerantlik omilining o‘rni va roli tahlil qilingan. Shuningdek, global xalqaro, guruhlararo va shaxslararo aloqalarning kengayishi insonlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan tashqarida, neytral qolishiga umuman imkon qoldirmayotganligi, turli ixtilof, ziddiyat va to‘qnashuvlar paydo bo‘lish xavfining keskin ortishi va globallashuv jarayonidagi shu kabi xavfli vaziyatlarning oldini olishga esa faqatgina yuksak tolerantlik madaniyati qodir ekanligi ochib berilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Глобализация, толерантность, нетерпимость, культура, информатизированное общество, политические процессы, социальные отношения, мегасообщество, традиции, ценности, мультикультурализм, фундаментализм.	В данной статье проанализированы роль и значение фактора толерантности в исследовании глобализма, охватывающего политические процессы и межличностные социальные отношения. Кроме того, автор раскрывает, что расширение глобальных международных, межгрупповых и межличностных отношений не оставляет возможности людям оставаться нейтральными и вне социально-политических процессов, а предотвращению угроз возникновения различных разногласий, противоречий и столкновений, а также других опасностей глобализации, способствует лишь высокая культура толерантности.
KEY WORDS	ABSTRACT
Globalization, tolerance, intolerance, culture, Information society, political processes, social relations, mega society, traditions, values, multiculturalism, fundamentalism.	This scientific article analyzes the place and role of the factor of tolerance, which includes political processes and interpersonal social relations, in the study of globalization. Also, the expansion of global international, intergroup and interpersonal relations does not allow people to remain neutral outside of socio-political processes, the risk of various disagreements and conflicts increases sharply, and it is absolutely necessary to prevent such dangerous situations in the process of globalization; it has been proven that a culture of tolerance is capable.

Kirish. Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tobora rivojlanishi va o‘zgarib borishi insoniyat oldida yangidan-yangi masalalarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Tabiiy ravishda savol paydo bo‘ladi, nega bugungi kunda jamiyatda intolerantlik va ekstremizmning yangi ko‘rinishlari paydo bo‘lmoqda? Olimlar bu borada jamiyatning

taraqqiyotidan kelib chiqib turlicha javob berishadi (“postindustrial jamiyat”, “axborotlashgan jamiyat” va boshqa omillar). E.Giddensning e‘tiroficha, bu “qo‘ldan chiqarilgan”, yangi qoidalar bilan xarakterlanadigan dunyodir. Bu kabi ta’birlar, eng avvalo, globallashuv jarayonlari sabab shakllanmoqda. Globallashuv



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

tushunchasining paydo bo'lganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, mazkur g'oyaning o'zi eng yosh siyosiy konstruksiyalardan biri hisoblanadi. Hatto, dunyodagi eng yirik ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan AQSh Kongressi kutubxonasida 1987-yilgacha globallashuv to'g'risida birorta manba mavjud bo'lmagan [1; 212].

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni o'rganishda analiz va sintez, unduksiya va deduksiya, analogiya, tasniflash, abstraktlashuv va mavhundan aniqqa o'tish, tarixiy va mantiqiy tahlil uyg'unligi kabi umumilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tolerantlik mavzusining o'ziga xosligini hisobga olib, insonlarning tolerantligi va intolerantligi, atrofdagi odamlarning o'zgachaligini qabul qilish darajasini aniqlash maqsadida “Tolerantlik indeksi” ekspress so'rovnomasi (G.U. Soldatova, O.A. Kravsova, O.Y. Xuxlayev, L.A. Shaygerova), Feya shkalasi bo'yicha boshqalarni qabul qilish tashxisoti, V.V.Boykning kommunikativ tolerantlik so'rovnomasi kabi maxsus usullar qo'llandi.

Natijalar. Globallashuv kategoriyasi, avvalo, butun dunyo miqyosida keng yoyilgan o'zaro tarmoq aloqalari va kommunikatsiya tizimi, qolaversa, davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va jahon tartibotining yangi yo'sinda o'zgarib borayotgan “umumjahon”, umumplanetar (globality) tizimga o'tishidir. Globallashuvni shu asnoda anglash insonlar va mamlakatlar o'rtasidagi masofani yo'qotish, transmilliy turmush tarziga kirish, jamiyat va dunyoda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita (yoki bilvosita) ishtirok etishni taqozo etmoqda.

Globallashuv jarayonlari sotsiumning hayot tarziga sifat jihatdan yangi qirra va shakllarni olib kiradi. Globalizatsiya nazariyotchilarining ta'kidlashicha, mazkur fenomen nafaqat siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik munosabatlarga, balki u alohida holda har bir insonning hayot tarziga ham

sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi [2]. Antropotsentrik g'oyalarga asoslangan yangi zamonaviy jarayonlar globallashuvni ham aynan inson omiliga bog'liq ravishda tadqiq etishadi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv fenomenini o'ziga xos jarayon sifatida talqin qiladigan qarashlar juda ko'p. Globallashuvning nazariy asoslari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar, asosan, Buyuk Britaniya, Amerika va Skandinaviya mamlakatlarida amalga oshirilgan. Mazkur ilmiy muammoni chuqur tahlil etgan nazariyotchi-olimlar sifatida S.Xantington, R.Robertson, I.Vallersteyn, E.Giddens, M.Kastels, A.Turen, A.Etsioni, D.Rozenau, D.Rugi, M.Uoters va boshqalarni e'tirof etishimiz mumkin.

Globallashuvni tadqiq etishda siyosiy jarayonlar va shaxslararo ijtimoiy munosabatlarni o'zida qamrab oluvchi tolerantlik omili ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda asosli savol tug'iladi, ya'ni, kechagi kun bilan taqqoslaganda hozirgi zamon kishisining kundalik hayotida nimalar o'zgardi? Insoniyat madaniy xilma-xil muhitda yashayotganligini anglay boshlaydi. Turli-tuman madaniy omillar bilan to'qnash kelish, ularning ayrimlarini qabul qilsa, ayrimlaridan o'zini tiyish refleksiya shakllana boshladi. Globallashuv insonlar o'rtasidagi ilgari mavjud bo'lmagan, ijtimoiy munosabatlarning turli usul va uslublarini taqdim etdi. Globalistlar orasida, bugungi kunda na makon, na zamon o'lchovlarini tan olmaydigan madaniyatlararo muloqot shakllanayotgani e'tirof etiladi. Avvallari hududiy chegaralar lokal jamiyatlarni tashqi dunyo yoki o'zga jamiyatlardan to'sib (gohida himoyalab) turar edi. Bugun esa mazkur jismoniy cheklavlar deyarli yo'q bo'lib, turli madaniyat va jarayonlarning yer shari bo'ylab yoyilish jarayoni kechmoqda. Madaniyatlarining yoyilishi, aralashuvi va o'zaro uyg'unlashuvida, eng avvalo, ommaviy kommunikatsiya vositalari



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

va o‘zida turizm, mehnat va majburiy ko‘chishlarni qamrab olgan migratsiya jarayonlari muhim rol o‘ynamoqda.

Favqulodda madaniy xilma-xillik va o‘ziga xosliklar sharoitida kun tartibida “boshqalar” bilan o‘zaro ijtimoiy munosabatda inson o‘zini qanday tutishi kerak? degan savol paydo bo‘ladi. Mazkur sharoitda “biz” va “o‘zgalari” fenomenlari o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi T.Gobbs nazariyasidagi “barchaning barchaga qarshi kurashi”ga aylanib ketishi mumkin. Mazkur qarama-qarshilikka asoslangan jarayonlar ijtimoiy kategoriyalash qonuni tadqiqotchilari tomonidan chuqur tahlil qilingan bo‘lib, globallashuv sharoitida mazkur ilmiy muammo yanada keng ma‘no-mazmun kasb etmoqda [3; 214-215]. Xususan, A.Galkin va Y.Krasin kabi ayrim olimlar o‘z asarlarida shunga urg‘u berishadiki, “globallashuv butun dunyoni yagona bir sotsiumga aylantirishi asnosida insonlar o‘rtasidagi “bizniki” va “o‘zganiki” kabi baholashlarni yo‘qqa chiqarishi mumkin” [4; 64]. Agarda oldinlari o‘zga bir joyda biror voqelikning paydo bo‘lishi biz uchun ahamiyati deyarli yo‘q bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda zamonaviy axborot vositalari sabab biz ham mazkur voqelikning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanib bormoqdamiz.

Yana bir tomoni, global axborot va moliyaviy oqimlarning kuchayishi “o‘zimiz” va “o‘zgalari” kategoriyalari o‘rtasidagi masofani minimallashtiradi. Global xalqaro, guruhlararo va shaxslararo aloqalarning (networks) kengayishi insonlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan tashqarida, neytral qolishiga umuman imkon qoldirmaydi. Mazkur jarayonda chuqur o‘zaro aloqadorlikda turli ixtilof, ziddiyat va to‘qnashuvlar paydo bo‘lishi xavfi keskin ortadi. Shunga o‘xshash xavfli vaziyatlarning oldini olishga esa faqatgina yuksak madaniyat va tolerantlik qodir, deyish mumkin.

Keng ma‘noda globallashuv xoh bu jo‘g‘rofiy, xoh madaniy, iqtisodiy yoki siyosiy bo‘lsin, yagona makonning shakllanishi bo‘lib, milliy chegaralarning bartaraf etilishi, zamon va makonning uyg‘unlashuvi asnosiga quriladi. Davlat yaqin vaqtlargacha amalga oshirib kelgan “tiyib turish” rolini amalda boy beradi. Shuningdek, global geosiyosiy maydonda xalqaro tashkilotlar, xalqaro nodavlat tashkilotlari va transmilliy korporatsiyalarning kuchayib borishi davlatning suverenitetini yo‘qotishgacha olib kelishi mumkin. Ilmiy-texnik taraqqiyot butun dunyo bo‘ylab insonlar va axborot oqimlarining hech qanday to‘siqsiz ommaviy harakatiga olib keladi. Globallashuvning keng ko‘lam yoyishi, biz uchun birlamchi bo‘lgan ko‘p davlatli jahon hamjamiyatini yagona transmilliy jahon hamjamiyati – “Mega-jamiyat” (yoki boshqacha ta‘riflaganda: “mega-sotsium”, “global hamjamiyat” va b.)ga transformatsiyasini amalga oshirmoqda [5; 126-127].

Ayrim tadqiqotchi olimlarning fikricha, jahon o‘zida yagona iqtisodiy tizim, yagona xalqaro huquq tamoyillari, yagona madaniy qadriyatlar va yagona xavf-hatar muammolarini qamrab olgan yagona makonga aylanib ulgurdi [6; 29]. Umumjahon miqyosdagi integratsiya jarayonlarining rivojlanishi sharoitida “inson bu – dunyo fuqarosi” tushunchasining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Bugun madaniyatlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligi haqida ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Turli xalqlarning madaniyatlari o‘zaro bir-biriga ta‘sir qilmoqda, aralashmoqda va keng yoyilmoqda. Bu aksariyat hollarda migratsiya jarayonlari, ommaviy kommunikatsiya vositalarining tarqalishi va boshqa bir qancha omillar bilan ham bog‘liqdir. Inson bevosita o‘ziga begona odamlar, o‘zga madaniyatlar bilan muloqotga kirishmoqda. Insoniyat dunyoning



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

naqadar plyuralistik makon ekanligini chuqur idrok etmoqda.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda madaniyatlarning assimilyatsiyasi sodir bo‘lmoqda. Mazkur ijtimoiy-madaniy hodisani Y.Molevich o‘z asarida qiziqarli tasvirlaydi. Uning ta’kidlashicha, jahon ijtimoiy-madaniy jarayonlarida hayot tarzining global unifikatsiyasi: insonlar bir xildagi kiyim kiyishi, bir xildagi musiqa tinglashi, bir xildagi odat va qadriyatlarning shakllanishi hamda axborot almashinuvi tobora kuchaydi. Bir so‘z bilan aytganda, madaniy universallashtirishga asoslangan global jarayonlarni kechiktirish, murakkablashtirish mumkin, lekin ularni aslo to‘xtatib yoki bekor qilib bo‘lmaydi, chunki mazkur jarayon hozirgi dunyoning obyektiv qonuniyatlariga va ehtiyojlariga asoslanadi. Ularning harakatlantiruvchi kuchi esa xilma xil bo‘lib, bu, o‘z navbatida, kishilik jamiyatiga ulkan ta’sir qilmoqda.

Bular eng avvalo, har kuni milliardlab insonlarni bir xil madaniy tajriba bilan tanishtiradigan, urf-odat va qadriyatlarni birlashtiradigan dunyo ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liqdir. Bu ingliz tilidan kasbiy, o‘quv, kundalik muloqotning asosiy xalqaro tili sifatida foydalanishning eng keng tarqalgan amaliyoti bilan ham bevosita bog‘liq. Masalan, bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda ikki tili (bilingvizm) tizim amaliyoti ijtimoiy-madaniy hayotdan chuqur o‘rin olgan bo‘lsa, ayrim jamiyatlar jahon tili – ingliz tiliga to‘laligicha o‘tishgan. Bu madaniy omillarning transformatsiyasiga ham olib kelmoqda (afrosakslar, hind sakslar va b.). Shuningdek, mazkur jarayon, vesternizatsiya asosida vujudga kelgan global voqelikka ma’lum darajada moslashgan, migratsiyaning barcha shakllarida – mehnat, sayyohlik, ta’lim va h.k. bilan ham hamohang ravishda taraqqiy etib

bormoqda. Yana bu o‘zining unifikatsiyalangan dasturiy madaniyati, qoida, muloqot tili va boshqa omillariga ega kompyuter va Internet texnologiyalarining ta’siri hamdir. Bular, yana dam olish va moda industriyasi, zamonaviy ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi, urbanizatsiyalashgan hayot tarzi va hokazolarni qamrab oladi. Mazkur sharoitlarda zamonaviy jahon madaniyatida bir xillik tendensiyasi ustuvorlik qilishiga ajablanish mumkinmi...? Bugun mahalliy me’yorlar va qadriyatlar, urf-odatlar va axloq, diniy e’tiqodlar, oilaviy hayot modellari... zamonaviy madaniy institutlari “qo‘l ostida” yo‘q bo‘lib ж Shu bilan bir qatorda, dunyo xalqlarining o‘ziga xosligi, madaniy va etnik farqi tobora yo‘q bo‘lib bormoqda. Bunday jarayonlarga munosabat bildira oladigan fundamentalistik va millatchilik kayfiyatidagi tashkilotlar harakatlari faollashmoqda hamda ular o‘z mahalliy madaniyatini har qanday usul bilan saqlab qolishga urinishmoqda. Globallashtirishning mazkur oqibatlarini yangi ijtimoiy ixtiloflar vektorini (masalan, immigratsiya bilan bog‘liq) keltirib chiqarish, mahalliy hamjamiyatlar o‘z hududi, an’ana va madaniyatini himoya qilishga va siyosiy maydonda o‘ziga xos kurashga kirishga tayyorligini bildirmoqda. Bugungi kunda mazkur jarayonlarning natijasi o‘laroq bir biriga qarama-qarshi bo‘lgan multikulturalizm va fundamentalizm singari ijtimoiy-siyosiy va madaniy-g‘oyaviy yo‘nalishlari shakllanib ulgurdi.

E.Giddens o‘z asarida yozganidek: “...XXI asrda jahon maydonida asosiy kurash fundamentalizm va kosmopolitik tolerantlik o‘rtasida kechadi. Turli ma’lumotlar va g‘oyalar doimo yer shari bo‘ylab “sayohat qiladigan” globallashtirayotgan dunyoda, biz doimo o‘zimizdan o‘zgacha fikrlaydigan va o‘zgacha yashaydigan insonlar bilan aloqaga kirishamiz. Kosmopolitik g‘oyadagi insonlar mazkur madaniy xilma-xillikni



qabul qiladi va qo‘llab-quvvatlashadi. Fundamentalistlar esa buni xavotirli va tahlikali hodisa sifatida baholashadi. Bu voqelikda ular diniy qadriyat, etnik odatlar yoki madaniy omillar bo‘ladimi faqatgina radikal uslublarga murojaat qilishadi” [8; 20-21].

Muhokama va xulosa. Globallashuv nazariyasi tadqiqotchilari mazkur fenomenning dialektik xarakteriga alohida urg‘u berishgan. Ularning ta’kidlashicha, hozirgi davrda global integratsiya jarayonlari to‘g‘risida ham, lokal differensiya to‘g‘risida ham keng fikr berish mumkin. Mazkur dialektiklik qarash “...globallashuv o‘z navbatida yagona va birlashuvni anglatganda, o‘zida bir qator lokal ijtimoiy jarayonlar, differensial va fragmentar sotsiumlarni qamrab oladi. Shuning bilan birga, bu qarama-qarshi bo‘laklar aynan dialektik nazariya

asnosida bir-birini to‘ldiruvchi, boyituvchi va integratsiyalashuvchi madaniy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, o‘zida ikkala qarama-qarshi tendensiyani birlashtirgan va asoslangan ajralmas birlikni anglatuvchi yangi tushuncha – “glokalizatsiya” konsepsiyasida o‘z aksini topdi” [9; 22]. Mazkur konseptual qarash global tolerantlikni anglatuvchi hamda o‘zida bir qancha insonparvar g‘oyalarni qamrab olishi bilan ham ajralib turadi. Bunda haqli savol paydo bo‘ladi: aynan qanday omil globalizm va lokalizm dialektikasini tartibga solib turadi? Uni oziqlantiruvchi makonlari asosan ikki tomonlamadir.

Demak, mazkur jarayonni to‘g‘ri tushunish va ijtimoiy hayotga tatbiq etish global dunyoda ham lokal madaniy omillarni saqlab qolish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Устинова И.В. Политическая толерантность и формы ее проявления в современном обществе / И.В.Устинова // Наука и образование современной Евразии: традиции и инновации / Сборник научных статей. Материалы Евразийского научного форума, посвященного 300-летию со дня рождения М.В.Ломоносова. 24-28 октября 2011 г. Часть третья / Под. ред. М.Ю.Спириной, С.М.Елисеева, Е.Е.Ланиной. – СПб.: МИЭП, 2012.

2. Гидденс Э. Устроение общества: Очерк теории структуризации / Э. Гидденс. – М.: Академический проект, 2005.

3. Устинова И.В. Политическая толерантность и формы ее проявления в современном обществе / И.В.Устинова / Наука и образование современной Евразии: традиции и инновации. Сборник научных статей. Материалы Евразийского научного форума, посвященного 300-летию со дня рождения М.В.Ломоносова. 24-28 октября 2011 г. Часть третья / Под. ред. М.Ю.Спириной, С.М.Елисеева, Е.Е.Ланиной. – СПб.: МИЭП, 2012.

4. Галкин А.А. Культура толерантности перед вызовами глобализации / А.А.Галкин, Ю.А.Красин // Социс, 2003. – №8.

5. Устинова И.В. Социальная категоризация в свете глобализационных процессов: интенсификация конфликтности идентичностей / И.В. Устинова // Мультикультуральная современность: Урал-Россия-Мир: Материалы XII Всероссийской научно-практической конференции (с международным участием) Гуманитарного университета, 2-3 апреля 2009 года: Доклады / Редкол.: Л.А.Закс и др.: В 2 т. – Екатеринбург: Гуманитарный ун-т, 2009. – Т. 1.

6. Умаров Б. Глобалашув зиддиятлари. – Т.: Маънавият, 2006.

7. Молевич Е.Ф. Введение в социальную глобалистику / Е.Ф.Молевич. – Самара: Издательский дом «БАХРАХ-М», 2007.